



TALABALARDA NOTIQLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR

Muallif: Mahliyo Teshabayeva ¹

Affiliyatsiya: Namangan davlat pedagogika instituti Mustaqil tadqiqotchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17391251>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarda notiqlik ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llari va amaliy metodlari yoritilgan. Jumladan, ovoz va talaffuz ustida ishlash, emotsional ifoda, tana tili, auditoriya bilan muloqot, interaktiv mashg'ulotlar, debatlar, storytelling, psixologik tayyorgarlik kabi usullar orqali talabalar nutq madaniyati va ta'sirchan ifoda qilish qobiliyatini rivojlantirishi mumkinligi asoslangan

Kalit so'zlar: notiqlik, talabalar, nutq madaniyati, emotsional ifoda, debat, storytelling, auditoriya bilan muloqot, psixologik tayyorgarlik.

Notiqlik san'ati – bu notiqning o'z auditoriyasiga ta'sir ko'rsata olishi, so'ziga nisbatan ishonch uyg'otish va o'z fikrlarini ravon, tizimli ifodalash qobiliyatidir. Talabalarda notiqlik ko'nikmalarini shakllantirish esa barcha zamonaviy kasblar kabi ularning akademik muvaffaqiyatiga, kelajakdagi professional faoliyatiga, shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada bu borada yordam beruvchi samarali usullar ko'rib chiqiladi va quyidagicha tartiblanadi:

Mantiqiy va izchil fikrlash – nutqning aniq, tushunarli va mantiqiy tuzilishini ta'minlash. Notiqlik san'atida faqat so'z boyligi yoki ifoda go'zalligigina emas, balki fikrlarning tartibli va mantiqiy bo'lishi ham muhimdir. “Mantiqiylik aniqlikka suyanadi. Bunda predmet aniqligi ham, tushuncha aniqligi ham muhimdir”. [9.23] Nutq tushunarli bo'lishi uchun avvalo insonning o'ylashi, fikr yuritishi aniq va izchil bo'lishi kerak. Mantiqiy fikrlash esa aynan shu aniqlik va izchillikni ta'minlab beradi. Mantiqiy va izchil fikrlash – bu fikrlarni sabab-oqibatga asoslangan tarzda, tushunarli ketma-ketlikda ifodalash demakdir. Bunday fikrlash orqali inson o'z nutqini to'g'ri tuza oladi, tinglovchiga nima demoqchi ekanini aniq yetkazadi. Talaba mantiqan o'ylab gapirsa, uning fikrlari mustahkam, asosli va ishonchli chiqadi. Mantiqiy fikrlashning asosiy belgilari: Nutq aniq reja asosida – kirish, asosiy qism va xulosa tartibida bo'lishi lozim. Har bir fikr keyingisini tushuntirib beradi yoki unga asos bo'ladi. Har bir aytilgan g'oya dalil, misol yoki hayotiy holat bilan mustahkamlanadi. Fikrlar bir-biriga ulanib boradi, betartib sakramaydi. Bunday fikrlashni rivojlantirish uchun nimalar qilish mumkin? Nutq rejasini tuzish – talabadan chiqish yoki yozma ish oldidan rejani tuzishni talab qilish, fikrni tartiblashga o'rgatadi. Savollar asosida fikrlash – “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar aksincha bo'lsa-chi?” kabi savollar orqali chuqur fikr yuritish rag'batlantiriladi. Munozara va tahlil – guruhli muhokama, bahs va tahlillar orqali talabalar fikr bildirish va uni mantiqiy asoslashga o'rganadilar. Dalillashga o'rgatish – har bir fikrni “nima uchun shunday?” degan savolga javob bilan mustahkamlash odati shakllantiriladi.

Ovoz va talaffuz ustida ishlash. Ovoz – notiqning eng kuchli vositalaridan biri bo'lib, uning to'g'ri boshqarilishi orqali tinglovchida e'tibor, qiziqish va ishonch uyg'otiladi. Talabaning ovoz balandligini joyiga qarab moslashtirishi, kerakli nuqtalarda urg'u berib gapirishi, intonatsiyani to'g'ri tanlashi nutqning ta'sirchanligini oshiradi. O'ta baland yoki juda past ovoz, monoton (bir xil ohangdagi) nutq, talaffuzdagi noaniqliklar tinglovchini charchatadi yoki chalg'itadi. Shu sababli talabalar ovoz ustida ishlashda quyidagi mashqlarni muntazam bajarishlari lozim: Nafasni boshqarish mashqlari: ovozni barqaror saqlash va so'zlar orasida to'g'ri pauza qilish uchun chuqur va nazoratli nafas olish o'rganiladi. Tovushli o'qish: matnlarni baland ovozda, his-tuyg'ular bilan o'qish orqali intonatsiya, urg'u va talaffuzni shakllantirish mumkin. Fonetik tahlil: so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, talaffuzdagi aniqlik ustida ishlash. Audio va video tahlil: o'z nutqini yozib olib, tinglash va tahlil qilish orqali ovozdagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish. Bunday mashqlar orqali talaba nafaqat nutqini jozibador qiladi, balki o'ziga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlaydi. Ovoz va talaffuz ustida ishlash – notiqlikdagi birinchi va zarur qadamdir.

Emotsional ifoda. Notiqlik san'atida emotsional ifoda – tinglovchi diqqatini jalb qilish va unga ruhiy ta'sir o'tkazishning kuchli vositalaridan biridir. His-tuyg'ular bilan boyitilgan nutq tinglovchi bilan chuqur hissiy aloqa o'rnatishga xizmat qiladi. Aynan emotsional ohang nutqni jonlantiradi, uni esda qolarli va ilhomlantiruvchi qiladi. Emotsional ifodaning samarali bo'lishi uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur: Ovoz ohangi va pauzalar: nutqdagi sekinlashish, tezlashish yoki ovoz balandligining o'zgarishi tinglovchining sezgi darajasini oshiradi. Dramatik pauzalar esa so'zlarning ma'nosini chuqurlashtiradi. Yuz ifodalari va tana tili: his-tuyg'ular nafaqat so'zlar orqali, balki ko'z qarashi, qosh-qovoq harakati, qo'l ishoralari orqali ham ifodalanadi. Bu bevosita tinglovchining ishonchini qozonadi. Shaxsiy munosabatni bildiruvchi ifodalar: "men o'ylayman", "chuqur his qilaman", "boshimdan o'tgan" kabi iboralar orqali talabalar o'z nutqiga samimiylik baxsh etadilar. Emotsional ifoda faqat dramatik ta'sir uchun emas, balki nutq mazmunini yetkazish vositasi sifatida ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar notiqlikda tinglovchi bilan hissiy bog'lanishni o'rnatganlarida, ularning chiqishlari ko'proq esda qoladi va kuchli taassurot qoldiradi.

Tana tili va mimika. Tana tili va mimika – og'zaki nutqni boyituvchi, so'zsiz muloqot vositasi sifatida notiqlikda muhim ahamiyatga ega. Notiq so'zlar orqali ma'lumot bersa, tana tili va yuz ifodalari orqali mazkur ma'lumotni ta'sirchanroq va jonliroq yetkazadi. "Keng imo-ishoralar notiq haqida tinglovchilarga o'ziga ishongan, rahnamo, kichik imo-ishoralar esa o'ziga ishonmaydigan, ojiz shaxs sifatida ma'lumot beradi". [8. 80] Ayniqsa, talabalar uchun sahna yoki auditoriya oldida chiqish qilganda tana tili orqali ishonch, samimiylik va faollikni namoyon etish muhimdir. Tana tili va mimikani rivojlantirishda quyidagi elementlar muhim o'rin tutadi: Qo'l harakatlari: so'zlarni vizual tarzda ifodalash uchun qo'l harakatlaridan maqsadli foydalanish nutqga joziba baxsh etadi. Biroq haddan tashqari harakatchanlik yoki sun'iy imo-ishoralar tinglovchida salbiy taassurot qoldirishi mumkin. Yuz ifodasi (mimika): gapirilayotgan mavzuning ruhiyatiga mos mimika nutq ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, tabassum iliqlik, qosh chimirish esa jiddiylik ifodasidir. Tana holati va harakati: tik turgan, ochiq va tabiiy holatdagi tana ko'rinishi notiqning ishonchliligini ko'rsatadi. Sahna yoki sinf xonasida harakatlanish esa auditoriya bilan yaqinlik hissini uyg'otadi. Ko'z bilan aloqa: tinglovchilar bilan ko'z orqali muloqot qilish ularning e'tiborini ushlab turishga va ishonchli muhit yaratishga xizmat qiladi. Tana tili va

mimikaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi orqali talabalar o'z nutqini nafaqat tushunarli, balki jonli, ta'sirchan va ishonchli tarzda ifoda etishga erishadilar. □

Auditoriya bilan muloqot. Notqlik san'atining samaradorligi nafaqat nutqning mazmuni va shakliga, balki auditoriya bilan o'rnatilgan muloqot darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Talaba notiq sifatida auditoriyani faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qabul qilishi lozim. Shu bois auditoriya bilan bevosita aloqa o'rnatish, ularning reaksiyalarini sezish va unga moslashish notqlik mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Samarali muloqot uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berilishi zarur: "Qaddi-qomatni tekis tuting, tinglovchilar ko'ziga tik qarang. [6. 9] Zero, ko'z bilan aloqa tinglovchilarning ko'zlariga qarab gapirish ularning e'tiborini jamlashga va nutqga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Bu tinglovchida o'ziga xos ishonch hissini uyg'otadi. Tinglovchi reaksiyalarini kuzatish: yuz ifodasi, tana harakati yoki boshqa signallar orqali tinglovchilarning qiziqish darajasini baholash mumkin. Notiq shu asosda nutqining tezligini, ohangini yoki mazmunini moslashtiradi. Savol-javoblar va o'zaro fikr almashish: auditoriya bilan ikki tomonlama muloqotni yo'lga qo'yish, savol berish yoki fikr bildirishga undash talabalar notqlik malakasini interaktiv tarzda rivojlantiradi. Empatiya va samimiylik: tinglovchining ehtiyoj va his-tuyg'ularini tushunish va hurmat qilish orqali notiq va auditoriya o'rtasida ijobiy aloqa shakllanadi. Shu tarzda o'rgatilgan auditoriya bilan muloqot ko'nikmalari talabaga nafaqat notiq sifatida yetuk bo'lishda, balki turli ijtimoiy vaziyatlarda ham muvaffaqiyat qozonishda katta yordam beradi.

Debatlar va munozaralar tashkil etish. Debatlar va munozaralar notqlik ko'nikmalarini shakllantirishda sinovdan o'tgan samarali usullardan biridir. Bu usul talabalarni mustaqil fikrlashga, o'z pozitsiyasini asosli himoya qilishga va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilishga o'rgatadi. Debat jarayonida talabalar nafaqat o'z fikrlarini bayon etadilar, balki mantiqiy mushohada yuritish, dalillash va auditoriyani ishontira olish qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Debat va munozaralarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Analitik fikrlashni faollashtiradi – mavzuga oid asosli fikr va dalillarni yig'ish, ularni tartibga solish va izchil tarzda ifodalash ko'nikmasi shakllanadi.

Muloqotda madaniyatli tortishuv olib borish – bahs-munozaralarda odob doirasida fikr aytish, boshqalarning fikrini tinglash va e'tiroz bildirish madaniyati rivojlanadi.

Notqlikdagi ishonchlilik – o'z nuqtai nazarini qat'iyat bilan himoya qilish va buning uchun to'g'ri til vositalaridan foydalanish talabalarning ommaviy chiqishlarga bo'lgan tayyorgarligini oshiradi. Debatlar odatda ikki yoki undan ortiq guruhlar o'rtasida olib boriladi. Har bir guruh ma'lum bir mavzuda "tarafdor" yoki "qarshi" pozitsiyada turadi. Ular navbatma-navbat fikr bildiradilar, dalil keltiradilar va bahsni davom ettiradilar. Jarayon oxirida hakamlar yoki boshqa talabalar ishtirokida yakuniy xulosa chiqariladi. Bu jarayonda talabalar nutqning tuzilishi, urg'u va intonatsiyadan foydalanish, tana tili va emotsional ifodaning o'rnini amaliyotda ko'proq his etadilar. Demak, debatlar orqali talabalar nafaqat notqlikni, balki tinglovchilar bilan samarali muloqotni ham o'zlashtiradilar.

Storytelling (hikoya qilish) usuli Notqlik ko'nikmalarini shakllantirishda "storytelling", ya'ni hikoya qilish usuli, o'ziga xos didaktik va emotsional ta'sirga ega metod sanaladi. Bu usul orqali talabalar auditoriyani jalb qilish, diqqatni saqlab qolish va voqeani ta'sirchan tarzda yetkazish mahoratini o'zlashtiradilar. Storytelling – bu oddiy voqeani ham kuchli kommunikatsiya vositasiga aylantirish san'ati bo'lib, unda

nafaqat gapirayotgan shaxsning fikri, balki his-tuyg'ulari, tajribalari va ruhiy holati ham ifodalanadi. Bu yondashuv orqali talabalar nutqni jonlantirish, obrazli tasvirlar yaratish va tinglovchiga ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Storytellingning o'quv jarayonida quyidagi afzalliklari ajralib turadi: Ijodiy fikrlashni faollashtiradi – voqea asosida syujet tuzish, uni dramatik va mantiqiy izchillikda bayon etish orqali talabalar o'z nutqini boyitadi. Auditoriyaga yaqinlikni ta'minlaydi – shaxsiy hayotga oid voqealar yoki boshqalardan eshitilgan qiziqarli hikoyalar orqali notiq bilan tinglovchilar o'rtasida hissiy bog'lanish yuzaga keladi. Nutqiy ohang va pauzalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi – hikoya qilishda vaqtni to'g'ri taqsimlash, intonatsiya, urg'u va tana tilidan samarali foydalanish talabalarda sahna nutqi malakasini shakllantiradi

Psixologik tayyorgarlik va ishonchni oshirish. Ommaviy nutq so'zlash jarayonida talabalar ko'pincha stress va tashvishni his qiladi. Shu sababli psixologik tayyorgarlik notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon talaba o'zini erkin his qilishga, ishonch bilan auditoriya oldida chiqishga tayyorlaydi. Psixologik tayyorgarlik uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi: Chuqur nafas olish texnikalari – bu usul asablarni tinchlantirish va stressni kamaytirishga yordam beradi, nafasni boshqarish orqali ovoz chiqarishda barqarorlik hosil bo'ladi. Ijobiy tasavvur va ruhiy motivatsiya – nutq so'zlanadigan joyni va tinglovchilarni ijobiy ko'z bilan tasavvur qilish, o'z-o'zini rag'batlantirish nutq paytida ishonchni oshiradi. Stress bilan kurashish mashqlari – meditatsiya, relaksatsiya yoki qisqa tanaffuslar notiqning kayfiyatini yaxshilashga xizmat qiladi. O'zini baholash va tayyorgarlik – nutq matnini ko'p marta takrorlash, o'z nutqini yozib ko'rish va uni tahlil qilish orqali o'z ustida ishlash ishonchni mustahkamlaydi. Psixologik tayyorgarlik talabalarni nafaqat nutq so'zlashda, balki hayotning boshqa sohalarida ham o'ziga ishonch bilan harakat qilishga o'rgatadi. Natijada, ular ommaviy chiqishlarda qo'rquv va xavotirdan xoli bo'lib, o'z fikrlarini erkin va ravon ifoda eta oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel. *Ritorika*. – Toshkent: Fan, 2002.
2. Forobiy A.N. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Ma'naviyat, 1993.
3. Karimov B. *Nutq madaniyati va notiqlik asoslari*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Xusanboyeva D. *Pedagogik muloqotda notiqlik*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. G'ulomov N. *Nutq madaniyati*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Deyl Karnegi. *O'z o'ziga ishonch hosil qilish va notiqlik san'ati*. – Toshkent: Nafas, 2010.
7. Bekmirzayev N. *Notiq, nutq, xulq*. – Toshkent: Noshirlik yog'dusi, 2011.
8. Qahhorov I. *Notiqlik san'ati*. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
9. Jumanioyozov R. *Notiqlik san'ati*. – Toshkent: Lesson press, 2016.
10. Leshutina I. *Ritorika notiqlik san'ati*. – Toshkent: Yosh kuch, 2021.
11. Jumanioyozov R. *Notikli mahorati*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.